



TARBIYA JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Pulatova Nilufar Abdurahmonovna

Shayxontohur tuman politexnikumi

Tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faol va interfaol metodlar tarbiya samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. O'quvchilarda muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik, mas'uliyat, mustaqil fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalar yoritilib, ular ta'lim jarayonida qo'llanishining afzalliklari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishida tarbiyaviy faoliyatni innovatsion metodlar, raqamli resurslar, muammoli vaziyatlar va rolli o'yinlar asosida tashkil etishning samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, zamonaviy pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion metodlar, interfaol usullar, muloqot madaniyati, axloqiy tarbiya, ijtimoiy kompetensiya, tarbiyaviy texnologiyalar, mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, o'quvchi shaxsi rivoji.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan talablar keskin o'zgarib bormoqda. Yosh avloddan nafaqat bilimli bo'lish, balki muloqotga kirisha oladigan, jamiyatga moslashgan, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli bo'lish talab etilmoqda. Mazkur vazifalarni samarali bajarish esa tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

Zamonaviy tarbiya nafaqat axloqiy pand-nasihatga tayangan holda, balki amaliy faoliyat, muammoli vaziyatlar, hamkorlik, rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar va raqamli resurslardan foydalanishga tayanishi bilan xarakterlanadi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishiga yordam beradi.

Mazkur maqolada tarbiyada zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mohiyati, ularning amaliyotda qo'llanish imkoniyatlari hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishdagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir davrning ijtimoiy-madaniy talablari asosida yangilanib boradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish tarbiya samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Tarbiyaning nazariy asoslarini belgilovchi asosiy omillar — bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faol pedagogika tamoyillari va kommunikativ rivojlanish konsepsiyalaridir.

Avvalo, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tarbiyada o'quvchi shaxsining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olishni talab qiladi. Bunday yondashuv o'quvchini tarbiyaviy jarayonning obyekti emas, balki subyekti sifatida ko'rishni nazarda tutadi. O'quvchi o'z fikrini erkin bayon qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi, o'zini qadrlashi va mas'uliyatli bo'lishi uchun sharoit yaratiladi. Shaxsni rivojlantirishga qaratilgan tarbiya, avvalo, shaxsning ichki motivatsiyasi va o'zini anglash jarayonini kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim tamoyil — kompetensiyaviy yondashuvdir. Bu yondashuv tarbiyada bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchi hayotda qo'llay oladigan axloqiy, ijtimoiy, kommunikativ, fuqarolik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qiladi. Zamonaviy tarbiya nafaqat “qanday bo'lish kerak?” degan savolga javob beradi, balki o'quvchini real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish, mas'uliyatli qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'quvchida muloqot madaniyati, birga ishlay olish, boshqalarni tinglash, ijtimoiy faol bo'lish kabi ko'nikmalarning shakllanishi tarbiyaviy jarayonning zamonaviy talablaridan biridir.

Zamonaviy tarbiya nazariyasining yana bir muhim jihati — faol ta'lim va interfaol metodlarning ustuvorligi hisoblanadi. Tarbiyaviy suhbatlar, rolli o'yinlar, case-study, debatlar, muammoli vaziyatlar, guruhlarda ishlash kabi interfaol usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi va tarbiyaviy jarayonni samaraliroq qiladi. Ushbu metodlar o'quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy tajriba, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me'yorlarni ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogika tamoyillari tarbiyani xalqaro tajribaga moslashtirish, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanishni ham nazarda tutadi. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar, tarbiyaviy videoroliklar, elektron resurslar tarbiya jarayoniga jadal kirib bormoqda. Bularning barchasi o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, zamonaviy tarbiyaning nazariy asoslari o'quvchini mustaqil, ijodkor, mas'uliyatli, ma'naviy yetuk, jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan konsepsiyalar majmuasini tashkil etadi. Ushbu konsepsiyalar tarbiyaning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yangilashga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik mahorati, metodik yondashuvi va dars jarayonida innovatsion usullarni qo'llay bilishiga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bog'liq. Hozirgi ta'lim tizimida faol, interfaol va kompetensiyaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish o'quvchilarning nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun tarbiyaviy mashg'ulotlarni an'anaviy suhbat yoki nasihat tarzida emas, balki o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadigan shakllarda tashkil etish dolzarbdir.


Birinchidan, faol va interfaol metodlarni qo'llash tarbiya jarayonini jonlantiradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. "Aqliy hujum", "Bahs-munozara", "Debat", "Guruhlar bilan ishlash", "Fishbone", "INSERT", "Case-study" kabi metodlar orqali o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va o'z nuqtayi nazarini himoya qilishni o'rganadilar. Ayniqsa, tarbiyaviy mavzularni muhokama qilish, amaliy masalalarni yechish va rolli o'yinlar o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Ikkinchidan, tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan yondashuv amaliyotda individual ish shakllarini joriy etishni talab qiladi. Har bir o'quvchining temperament turi, qiziqishlari, o'zlashtirish darajasi, ijtimoiy faoliyati va ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olish tarbiyaviy ishning sifatini oshiradi. Masalan, kichik guruhlarda ishlash, loyiha-metodini qo'llash, individual topshiriqlar berish, o'quvchi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uning shaxsiy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z "men"ini anglashiga, fikrini erkin bayon etishiga va o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashiga yordam beradi.

Uchinchidan, tarbiyaviy jarayonda raqamli pedagogikaning o'rni tobora kuchayib bormoqda. Elektron darsliklar, multimediali videorolilar, animatsiyalar, interaktiv testlar, onlayn platformalar (Kundalik, EduMarket, Google Classroom) tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshiradi. O'quvchilar tarbiyaviy mavzularni vizual ko'rinishda qabul qilganda, ularning mazmuni yaxshiroq ongiga singadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali axloqiy-psixologik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan videodarslar, motivatsion roliklar, vatanparvarlik mazmunidagi kontentlardan foydalanish yuqori natija beradi.

To'rtinchidan, tarbiya jarayonida muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga axloqiy yoki ijtimoiy mazmundagi vaziyatlarni taqdim etadi va ularning mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratadi. Masalan: "Do'sting yolg'on gapirsa, sen qanday yo'l tutasan?", "Topilgan pulni qaytarish masalasi", "Ortiqcha telefon ishlatish oqibatlarini" kabi hayotiy vaziyatlar asosida o'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu esa ularning ma'naviy qaror qabul qilish strategiyasini shakllantiradi.

Bundan tashqari, tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi ham muhim o'rin tutadi. Ota-ona, sinf rahbari, psixolog, mahalla faollari va o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqot yo'lga qo'yilganda tarbiyaning natijasi ikki baravar oshadi. Hamkorlikda tashkil etilgan loyihalar, tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar yoshlarning mas'uliyat va jamiyat oldidagi burchini chuqurroq anglashiga yordam beradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar tarbiyaning amaliyotda yangicha shakllanishi, o'quvchilarda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy kompetensiyalar va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular tarbiyaviy jarayonni jonli, mazmunli, qiziqarli va o'quvchi uchun foydali shaklga keltiradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tarbiyaning nafaqat shakl va metodlarini, balki uning mazmun-mohiyatini ham tubdan yangilamoqda. O'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishi uchun tarbiyaviy jarayonni innovatsion, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish bugungi kunning asosiy pedagogik talabi hisoblanadi. Ushbu bo'limda zamonaviy yondashuvlarning tarbiya samaradorligiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon qilinadi.

Birinchidan, zamonaviy metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi. An'anaviy tarbiya ko'pincha bir yoqlama suhbatlarga tayanishga moyil bo'lgan bo'lsa, hozirgi yondashuvlar o'quvchini markazga qo'yadi, uni fikr yuritishga, savol berishga va hayotiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishga undaydi. Ayniqsa, rolly o'yinlar, debatlar, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi metodlar o'quvchilar o'rtasida tabiiy muloqotni kuchaytiradi. Bu esa ularda muloqot madaniyati, tinglash, eshitish va o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy yondashuvlar tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy samaradorligini oshiradi. O'quvchilar guruh bo'lib ishlash jarayonida mas'uliyatni bo'lishadi, boshqalar fikrini hurmat qilish, murosaga kelish, birgalikda qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bu kompetensiyalar keyinchalik real hayotda, jamoada ishlash, ijtimoiy muhitda o'zini tutish, muammoli vaziyatlarni boshqarish kabi ko'nikmalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, tarbiyaviy jarayonda raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarda axborot madaniyatini rivojlantiradi. Raqamli materiallar, animatsiyalar, videodarslar, elektron taqdimotlar orqali berilgan tarbiyaviy axborot o'quvchiga tezroq va aniqroq yetib boradi. Vizual va interaktiv usullar tarbiyani yanada qiziqarli qiladi, o'quvchilarning e'tiborini jalb etadi va mavzuning chuqur o'zlashtirilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tarbiyaviy faoliyatga samarali joriy etish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

1. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda an'anaviy suhbatdan ko'ra interfaol metodlarga ko'proq e'tibor qaratish.
2. Har bir mavzu bo'yicha amaliy vaziyatlar, real misollar va rolly o'yinlardan foydalanish.
3. O'quvchilarni guruh va jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etishga undash.
4. Raqamli resurslar, videodarslar, multimediali materiallar yordamida mavzularni jonlantirish.
5. Ota-onalar bilan muntazam hamkorlik o'rnatish, ularni tarbiyaviy jarayonga jalb qilish.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

6. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etish.

7. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji va zamonaviy ijtimoiy muhit talablarini e'tiborga olish.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tarbiya jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini yangicha bosqichga ko'tarmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faol va interfaol metodlarning tarbiyada qo'llanishi o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali vositalar ekanligi amaliyotda o'z isbotini topmoqda. Bu yondashuvlarning joriy etilishi natijasida o'quvchilar faolligi ortadi, muloqot madaniyati shakllanadi, mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qaror qabul qilish kabi hayotiy kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Tarbiyada raqamli texnologiyalar, multimediali vositalar, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlar qo'llanilishi o'quvchilarning zamonaviy ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshiradi, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ota-ona, pedagog va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishi tarbiyaviy jarayon samaradorligini yanada yuksaltiradi.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar tarbiyani faqat bilim berish jarayoni emas, balki yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazish, ularni mustaqil, faol, axloqiy barkamol va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashning poydevori sifatida xizmat qiladi. Tarbiyani zamonaviy tamoyillar asosida tashkil etish bugungi ta'limning ustuvor vazifasi bo'lib, pedagogning mahorati va yangilikka ochiqqligi bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4884-son qarori. – Toshkent, 2019.
3. Hasanboyev J., To'rayeva O. Pedagogika. – Toshkent: "O'qituvchi", 2022.
4. Yo'ldoshev J., Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Sano-standart, 2021.
5. Xolmatova M. Tarbiyaning nazariy asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
6. Abdullaeva Q. Pedagogik kompetensiyalar va ularning shakllanishi. – Toshkent: TDPI nashriyoti, 2021.
7. Shodmonov Sh., Qodirova F. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: "Zarqalam", 2018.
8. Talipov N., Usmonboeva M. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Interfaol metodlar asoslari. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2021.

